

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ROZOV JUMANAZAR NORQIZILOVICH

O'ZBEK TILINING LINGVOKRIMINALISTIK TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Описание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

| | |
|---|----|
| O'rozov Jumanazar Norqizilovich O'zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqi | 3 |
| Уразов Жуманазар Наркизиллович Лингвокриминалистическое исследование узбекского языка | 25 |
| Urozov Jumanazar Norkizilovich Forensic linguistic research of Uzbek language | 49 |
| E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works | 54 |

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
DSc.02/30.12.2019.Fil46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ROZOV JUMANAZAR NORQIZILOVICH

O'ZBEK TILINING LINGVOKRIMINALISTIK TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktri (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Tashkent – 2023

Falshfa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2621.4.PhD/Fil1929 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferali uch tilida (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.til.uz haqida "Ziyonet" axborot-ta'lim portaliining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

| | |
|---------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | Ko'chimov Shuhrat Norqizilovich filologiya fanlari doktori |
| Rasmiy opponetlar: | Odilov Yorg'injon Razmonallyevich filologiya fanlari doktori, professor Ulnqov Nosirjon Muhammadaliyevich filologiya fanlari doktori, professor |
| Yetakchi tashkilot: | Qarshi davlat universiteti |

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 7-iyun soat 14:00 majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Sifahrizabze tar ko'chasi, 5-uy, Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44, e-mail: uztafi@ncademy.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyatining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (81 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy, Tel.: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferali 2023-yil 23-iyun da tarqatildi.
(2023-yil 25-iyun dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi)


D.S. Xudayberganova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor
G.M. Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, f.f.n.,
katta ilmiy xodim
Sh.R. Usmonova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar rais o'rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanning rivojlanish tendensiyasi jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda har bir davrda o'ziga xoslik kasb etadi. Xususan, XXI asrda fanlararo tadqiqotlar miqdori ortayotganligi kuzatilmoqda, fanlar integratsiyalashuvi natijasida yangi fanlar va ilmiy yo'nalishlar qaror topmoqda. Jahon tilshunosligi bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida ham sotsiolingvistika, yurislingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, matematik lingvistika kabi fan yo'nalishlar shakllanib, tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda huquqiy demokratik davlat va jamiyat qurish, inson huquqlarini ta'minlash zarurati nuqtayi nazaridan yurislingvistika ham yangi fan yo'nalish sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida tilshunoslik va huquqshunoslik sohalarining o'zaro integratsiyalashuvi asosida yuzaga kelgan lingvokriminalistika, sud lingvistikasi, sud notiqchiligi, qonun tili lingvistikasi, huquq ijodkorligi lingvistikasi kabi maxsus sohalarning amaliy ahamiyati yuqori darajada baholanmoqda. Xususan, sud-tergov jarayonida kriminalistik matnlarni lingvistik aspektida tekshirish, tahlil qilish, muammoli holatlarni aniqlash va ularga huquqiy baho berish kabi vazifalarning amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizning yanada demokratlashuvi, so'z erkinligi, ommaviy-axborot vositalarining keng miqyosda yoyilishi, tilning amaliy faoliyatdagi tatbiqining faollashuvi natijasida matnning lingvistik aspektida ekspertizadan o'tkazish masalasi doirasidagi amaliy ishlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu holatni lingvokriminalistik ekspertizani amalga oshirish uchun tergov, surishtiruv organlari tomonidan filologik ilmiy-tadqiqot muassasalariga, tilshunos mutaxassislariga qilinayotgan murojaatlarning ko'pligi orqali ham kuzatish mumkin. Jumladan, mualliflik huquqi, plagiat va qalbaki bosma materiallarga qarshi kurashish, insonning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy, shaxsiy obro'sini himoya qilish, sud-tergov, surishtiruv jarayonida yuridik matnlarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, huquqiy baho berish, o'zbek lingvokriminalistika sohasini rivojlantirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son¹, 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son Farmonlari², 2022-yil 8-fevraldagi "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini Keng Joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori³ qabul

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son farmoni

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Ichki ishlar organlarining chapert-kriminalistika

qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda sud-tergov sohasida shaxsning huquq va erkinliklariga soʻzsiz rioya etilishini taʼminlash, protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillarni toʻplash va mustahkamlash, ularga baho berish, lingvokriminalistika va lingvistik ekspertiza tizimini ilgʻor xorijiy standartlar darajasida amalga oshirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi¹, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi farmonlari² hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustavor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustavor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida lingvokriminalistika masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu soha masalalari doirasidagi dastlabki ilmiy ishlardan biri nemis huquqshunosi R.Icingning "Yuridik texnika" asaridir³. Shundan soʻng, Kaliforniya universiteti professori Devid Melinkoff oʻzining "Huquq tili" monografiyasida ingliz yuridik tilining soʻfligini saqlash haqidagi qarashlarini bayon etadi⁴. AQSHda sud tilshunosligining asoschisi Jorjtaun universiteti professori R.Shuy tomonidan "Sud tilshunosligi" asari orqali lingvistik tahlilning jinoyatlarni ochish jarayonidagi ahamiyati tadqiq qilinadi⁵. 1968-yilda shved tilshunosi, professor Yan Svartvik "Sud lingvistikasi" terminini birinchilardan boʻlib isteʼmolga kiritib, lingvistik tadqiqotlar va usullarning yozma dalillarni baholash va qonunchilik tiliga tatbiq etishdagi ahamiyatiga ilmiy baho beradi⁶. Amerikalik tilshunoslari M.Kultcard, A.Jonson, D.Rayt⁷, ingliz olimi Tim Grant⁸, Nikola-Jan Smit⁹lar tomonidan ijtimoiy tarmoq xabarlari va anonim xatlarni

faoliyatini zamonaviy ilmiy-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-122-maʼqomi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5530-son farmoni.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi PF-6084-son farmoni.

³ Riepin P. Юридическая речь. – СПб, 1909.

⁴ Melinkoff D. The Language of the Law. – Boston: Little, Brown and Company, 1963. – P. 326 p.

⁵ Shay Roger W. Linguistics in the courtroom: A practical guide. – New-York: Oxford University Press, 2006. – 453 p.

⁶ Svartvik J. The Evans statements: A case for forensic linguistics. – Göteborg: Univ. of Göteborg, 1968. – P. 42-44.

⁷ Coulthard M., Johnson A., Wright D. An Introduction to forensic linguistic. book. – NY.: Routledge, 2017. – 246 p.

⁸ Grant T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. Book. – Birmingham: Lias, 2010. –P. 128.

⁹ Nicola-Jane Smith. A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters. Doctor of Philosophy. annual. — diss. — Psychology Department University Of Surrey September, 1996. — P. 334.

lingvistik ekspertiza qilish tamoyillari ishlab chiqilgan. Kriminalistik vaziyatlarda lingvistik ekspertizani tashkil etish masalalari Andrea Nini, Jon Olsson tadqiqotlarida ham o'rganilgan¹.

Rus tilshunosligida lingvistika va yurisprudensiyaning integratsiyalashuvi masalalari N.D.Golev², Y.L.Ziyangirova, Y.A.Grisbenkova³ tomonidan tadqiq qilingan. Ekstremizm bilan bog'liq matnlar lingvistik ekspertizasi M.V.Ablin tadqiqotida o'z aksini topganligini kuzatish mumkin⁴. Lingvistik ekspertizaning shakllanishi va amaliyotga tatbiqi masalasi A.N.Baranov⁵, Y.A.Belchikov, M.V.Gorbanevskiy, I.V.Jarkov⁶, Y.N.Bondarenko⁷, K.I.Brinev⁸ kabilar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan. Sud lingvistik ekspertizasining tarkibiga kiruvchi fonoskopik ekspertizaning ilmiy-nazariy asoslari Y.I.Gafyashina tomonidan ishlab chiqildi⁹. Lingvokriminalistik matnlarni semantik tahlil qilish tamoyillari, haqorat holatlarida unga lingvokriminalistik baho berish kabilar M.A.Grachev¹⁰, I.A.Sternin¹¹, Y.I.Davidova¹², Y.V.Golubeva¹ tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

¹ New A. Authorship profiling in a forensic context. Doctor of Philosophy, autoref. ... diaz – Birmingham, March 2014 – P. 250.

² Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом исследовании // *Криминалистика: проблемы и перспективы. Междуц. сб. научных трудов* / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1999. – С. 7. Голев Н.Д. "Взят для себя все" // *Криминалистика-5. Юридические аспекты, право и лингвистические аспекты языка. Сб. научных трудов* / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2004. – С. 246-251; Голев Н.Д. Об объективности и адекватности истолкования лингвистической экспертизы // Под ред. Н.Д. Голева // *Криминалистика-3. Проблемы криминалистической экспертизы. Межвузовский сборник научных трудов* / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С. 14-29; Голев Н.Д. Актуальные проблемы криминалистической экспертизы // *Криминалистика-3. Проблемы криминалистической экспертизы. Межвузовский сборник научных трудов* / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С. 5-14.

³ Зиндурова Е.Л. Основы лингвистического режима терминологического инструментария лингвистической экспертизы. Автореф. дисс. – докт. филол. наук. – Москва, 2001. – С. 62.

⁴ Аблин М.В. Теоретико-лингвистическое обоснование лингвистической экспертизы по делу об экстремизме. Автореф. дисс. – докт. филол. наук. – Уфа, 2016. – С. 162.

⁵ Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: учеб. пособие / А.Н. Баранов. – М. Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

⁶ Бельчинов Ю.А., Горбаневский М.В., Жарков И.В. Методические рекомендации по вопросам лингвистической экспертизы спорных текстов СМН [Текст]: сборник материалов. – Москва, 2010. – С. 105.

⁷ Бондаренко Е.Н. Анализ речевой стратегии диссертации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-комментария) // *Филологические науки. Вопросы теории и практики*. – 2014. – №10.1(40). – С. 27-29.

⁸ Бринев К.И. Теоретическое лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – С. 232; Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Автореф. дисс. – докт. филол. наук. – Кемерово, 2010. – С. 72.

⁹ Галашин Е.И. Основы судебного расследования. Монография. – М. СЭЗНЦН, 2003. – 236 с.; Галашин Е.И. Правовой статус судебной лингвистической экспертизы // *Цена слова. – М. СЭЗНЦН, 2002. – С. 224-237.*

¹⁰ Грачев М.А. Лингвокриминалистика. – Нижний Новгород: Нижегородский государственный лингвистический университет им. Н.А. Добролюбова, 2019. – 280 с.; Грачев М.А. Современное состояние лингвокриминалистика как науки // *Вестник Череповецкого государственного университета*, 2015. <http://vestnik.fednizka.ru/article/a/20150404-1-problemy-lingvokriminalistiki-kak-nauki>

¹¹ Стернин И.А. Непротивоположная форма высказывания в лингвокриминалистическом анализе текста [Электронный ресурс] / – 2010. – [http://knoblib.ru/abn/abn-expert-olav/olav/olav_konferencia_2010/doklad_e_abnabdelmonem_na_vozrozheniya_i_razvitiya_novoy_formy_vuzkalkulirovaniya_v_lingvokriminalisticheskoy_analize_teksta_2-1-6-23\(03.05.2014\)](http://knoblib.ru/abn/abn-expert-olav/olav/olav_konferencia_2010/doklad_e_abnabdelmonem_na_vozrozheniya_i_razvitiya_novoy_formy_vuzkalkulirovaniya_v_lingvokriminalisticheskoy_analize_teksta_2-1-6-23(03.05.2014)); Стернин И.А. Особые случаи и непротивоположная форма как предмет лингвистической экспертизы (бытовой и юридические отношения). – 1. Изд-во Томского университета, 2006. – С. 339-353.

¹² Давыдова Ю.И. Лингвокриминалистика: сферы применения лингвистических исследований. ФГБОУ ВО "Воронежский институт МВД России". 2020. – С. 169-172. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44433963>

O'zbekistonda yurisdudensiya va lingvistikaning o'zaro munosabati, huquq tili va terminologiyasi bo'yicha N.Mahmudov, A.Saidov, Sh.Ko'chimov, B.Mengliyev, G.G'ulomova, M.Qosimova, L.Karimova, X.Hayitov, R.Sharopova, O.Tursunova, U.Sobirova kabilar tadqiqot olib borishgan¹. Sud nutqi va leksikasi masalasi Q.Mo'yidinov², qonun ijodkorligida yuridik lingvistikaning tutgan o'rni X.Hayitov³, yuridik hujjatlarning predikativlik xususiyati K.N.Qayumova⁴ tomonidan maxsus o'rganilgan. Davlat tilida ish yuritish, yuridik hujjatlarni lingvistik bilimlar asosida tahlil qilish, ularning til va uslubiy yuzasidan A.Madvaliyev, M.Aminov, N.Mahmudov, N.Mahkamov, Y.Odifov⁵ kabilarning qo'llanmasi alohida ahamiyatga ega sanaladi.

O'zbek tilidagi normativ-huquqiy hujjatlar lingvistik ekspertizasi⁶, o'zbek tili yozma matnlari lingvistik ekspertizasining metodologik masalalari⁷, ilmiy matndagi soddada darak gaplar mazmunini o'xshashlik darajalarini aniqlashning lingvistik asoslari⁸, o'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarning hududiy xoslanishi masalalari⁹ yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni ham alohida ta'kidlash lozim.

Huquqning maxsus sohalarida, jumladan, lingvokriminalistika yo'nalishida til birliklarining qo'llanish o'rni va vazifasi kabilar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ayniqsa, sud-tergov jarayoni uchun haqorat, matn avtorizatsiyasi, huquqbuzarlar nutqi, ekstremistik matnlarni lingvistik va yuridik jihatdan baholash masalasi monografik tarzda maxsus o'rganilmagan. Bu

¹ Gulubekova E.B. Проблемы терминологической адекватности в аспекте сопоставимости // Международная студентско-педагогическая научная конференция. – 2016. – № 5-3.

² Саидов А., Саринджали Г. Юридический язык в судеуходе. – Ташкент: Адилит, 1994; Саидов А., Саидова Л., Кучина Ш., Колыкина М. Келтириб берилган ва тил. – Ташкент: Истиқлол ва ҳуқуқ дунёси, 1997. – 160 б.; Қурбанов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси аниқлаштирилган тили (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Жиннат қонунлари, Жиннат-процессуал қонунлари асосида). Филол. фан. ном. ... дисс. – Ташкент, 1995. – 209 б.; Шарипова Р. Ўзбек тили калиторий-сенсибл терминларнинг семантик-структур хусусиятидан ва лексикография тарафидан. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Ташкент, 2019. – 220 б.; Турсунова О.Ф. Ўзбек давлатчилиги тарафидан қўлланилган ҳудудий терминларнинг тилвий таъдир. Филол. фан. ном. дисс. – Ташкент, 2007. – 245 б.; Гулномова Г.Е. Ўзбек юрисдикция терминологиясининг истисол даври тарғиботи. Филол. фан. ном. дисс. – Ташкент, 2004. – 216 б.; Қасимова М. Структурно-системане особеништи юридический терминологии ўзбекистон тилига. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 156 б.; Каримова Л.А. Правильно и неправильно аспекты лексики в языке. Дисс. канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991; Сабирова Э. Ўзбек тилининг илмий пустиги'да ҳудудий терминларнинг белгилани. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Ташкент, 2022. – 145 б.

³ Мўйитов Қ.А. Ўзбек тили суд-тергов амалиёти. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Ташкент, 2019. – 145 б.

⁴ Хайитов Х. Қонун амалдорлигида юридик лексикологиянинг ўрни ва аҳамияти. Н.Ўзбекистон фан. ном. дисс. – Ташкент, 2011. – 206 б.

⁵ Қасимова К.И. Предикативликнинг синтаксис-семантик хусусиятлари (қалдаре ҳуқуқ ҳужжатлари шитиле, ўзбек ва рус тиллари матнларидаги ҳолати) таҳлил ва таҳлил). Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Ташкент, 2019. – Б. 145-154.

⁶ Аминова М., Мададалиева А., Мақсудова Н., Мақсудова Н., Озқилва Р. Давлат тилида иш юритилиш асосий қўлланма. – Ташкент: Ўзбекистон, 2020. – 528 б.

⁷ Аминова Г., Ва ҳуқуқ З., Беҳбудова Ф. О'zbek тилида лингвистик експертиза: ашаруф ҳолати. – Ташкент: ВООЖМАНУ ФРНТ, 2023. – 47 б.

⁸ Мумилонова К.Х. О'zbek тилида юрисдикция лингвистик експертиза қилиш жараёни, усуллари ва методлари. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Қў'қон, 2022. – 132 б.

⁹ Мумилонова К.Х. Илмий матндаги шитиле илмий гаплар маънани о'хшашлик даражаларини аниқлаштириши лингвистик асослари. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Қў'қон, 2022. – 137 б.

¹⁰ То'райева Д. О'zbek тилидаги ашаруф юрисдикцияда ашаруф матнларнинг ҳудудий аҳамияти. Филол. фан. бўлими фан. дисс. (PhD). – дисс. – Қў'қон, 2022. – 137 б.

holat esa ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlarining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan "O'zbek tilining amaliy masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsudi o'zbek tilshunosligidagi lingvokriminalistik matnlarning bosqichlari va ilmiy tamoyillarini aniqlash, shuningdek, ularning o'ziga xos leksik-semantik, morfologik, sintaktik tuzilishi, uslubiy va lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lingvokriminalistikaning yuzga kelishi va shakllanishi haqidagi mavjud nazariy fikrlarni o'rganish va tahlil qilish;

jahon tilshunosligi va o'zbek amaliy tilshunosligida lingvokriminalistikaning o'rganilish masalasini yoritish;

lingvokriminalistikaning tarkibiy qismlarini belgilash va ularni tahlil qilish, bahsli matnlarni lingvokriminalistik aspektida tadqiq qilishning o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish;

lingvokriminalistikaning metodologik masalalarini asoslash;

o'zbek tilshunosligida lingvokriminalistik ekspertiza o'tkazishning metodlarini tasniflash va amaliyotga tatbiq etish;

muammoli matnlarni tahlil qilish jarayonida qo'llanadigan usullarni tasniflash va ularga tavsif berish, shu asosda muammoli matnlarni ekspertiza qilishning o'ziga xos usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida sud hujjatlari va ommaviy axborot vositalaridagi turli bahsli matnlar, guvoh, gumon qilinuvchi va aybdorning ko'rsatmalari, kriminalistik nutqiy, yuridik hujjatlar va boshqa yozma matnlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi bahsli matnlarini lingvokriminalistik tadqiq qilish jarayoni, bosqichlari, metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida deduksiya, induksiya, eksperimental tahlil, kuzatish, analiz va sintez metodlari, grafologik, leksik-semantik va grammatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

o'zbek tilshunosligida lingvokriminalistik matnlarning lingvistik va huquqiy asoslari, leksik-semantik va grammatik kabi samarali usullari, haqorat, ekstremistik, terrorizm va tahdid kabi turlari, umumiy va maxsus bosqichlari, shuningdek, qonuniylik, obyektiv baholash kabi tamoyillari ochib berilgan;

haqorat, ekstremistik mazmunli va huquqbuzarlar nutqi bilan bog'liq lingvokriminalistik matnlarning, shuningdek, matndagi so'zlarning turli ma'nolarda kelishi kabi leksik-semantik, morfologik, uslubiy va lingvopragmatik xususiyatlarini lisoniy va huquqiy bilimlarga muvofiq aniqlangan;

o'zbek tilidagi mavjud muammoli vaziyatlarga oid haqorat, ekstremistik mazmundagi matnlar, turli giyohvandlikka doir argo va maxfiy so'zlar kabi bahsli matnlarning lingvokriminalistik nazariy asoslari faktik dastillangan;

bahsli matnlardagi lisoniy birliklar leksik-semantik jihatdan tasniflanib, so'zning semantik xususiyatlari, jumladan, ko'chma va nutqiy ma'nolari; qo'llangan lisoniy birliklarning nutqiy vaziyat bilan bog'liq pragmatik jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek lingvokriminalistikasini rivojlantirish, o'zbek tilidagi turli bahsli matnlarni lingvokriminalistik aspektida tadqiq qilishning bosqichlari, tamoyillari, metod va metodologik asoslarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, turli muammoli matnlarda (xoh og'zaki, xoh yozma) lingvokriminalistik ekspertizani belgilash, shuningdek, ekspert qarorlarini xulosalashga ko'maklashadi. Tadqiqot natijalari sud-tergov jarayonida turli bahsli matnlarni ekspertizadan o'tkazishda bevosita qo'llanishi mumkin bo'lgan va turli toifadagi ishlar (haqorat, tahdid, ekstremistik faoliyatga chaqiriqlar, anonim xatlar va boshqalar) doirasida lingvokriminalistik ekspertizalarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar uchun asos bo'ladi. Mazkur ishning tahlil va natijalari Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, yuridik oliy o'quv yurtlari, amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha darslik va qo'llanmalar uchun manba, material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-son "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi sud ekspertizasi markazi hamda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi ekspert-kriminalistika bosh markazi xodimlari, Manchester universiteti professori Andrea Nini va Aston universiteti professori, general-mayor Tim Grant tajribasi va tavsiyalariga asoslanganligida ko'rinadi.

Shuningdek, Toshkent shahri, Andijon va Qashqadaryo viloyatlari ma'muriy sud ishlarining 2018-2020-yillardagi hujjatlari manbalaridan foydalanilganligi tadqiqot ishining ishonchliligini ta'minlaydi. E'lon qilingan ilmiy maqola va tezislar amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqi xulosa va natijalari asosida:

sud-tergov jarayonida bahsli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq qilishning dastlabki bosqichida qo'llaniladigan umumiy tamoyillarga mos metodlar yuzasidan bildirilgan xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ekspert-kriminalistika bo'linmalarida xatshunoslik ekspertizalarini o'tkazishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ekspert-kriminalistika bosh markazining 2022-yil 27-dekabrdaqi №21/1454-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sud-tergov jarayonida qo'l yozuvi orqali ruhiy holati yoki yozuv bajarilgandagi holati, xususan, stress aqliy zaiflik, kasallik dori-darmon ta'sirida asabiylashish, zaiflik, mastlik, jarohatlar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish yoki charchoq kabi xususiyatlarni aniqlash imkonini bergan;

o'zbek tilida haqorat mazmunidagi matnlarni lingvistik va huquqiy jihatdan tadqiq qilishning ilmiy-amaliy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasi xulosalari va uslubiyatlarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 19-dekabrda 29-22-1024-sonli dalolatnomasi). Natijada "Sud-lingvistika ekspertizalarida haqoratomuz, obro'sizlantiruvchi so'zlarning semantikasi" nomli uslubiy qo'llanmasini tayyorlashda muhim manba sifatida xizmat qilgan;

turli munozaralarga sabab bo'luvchi muammoli matnlar, jumladan, inson sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi til birliklari, huquqbuzarlar (giyohvandlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar) nutqi bilan bog'liq matnlar, noadabiy leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlili yuzasidan chiqarilgan xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan AM-03-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" hamda P3-202004165-"Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" (olima ayollar granti) nomli amaliy grant loyihalarida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 28-fevraldagi 01/4-436 va 01/4-440-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha turli munozaralarga sabab bo'luvchi noadabiy til birliklarning leksik-semantik xususiyatlari va tahliliga doir nazariy ma'lumotlar bilan ta'ldirilgan;

korxonalar, tashkilot, savdo-sotiq hamda maishiy xizmat ko'rsatish obyektlariga qo'yiladigan nomlar (neyming), tovar belgilar (grafik, noverbal) bilan bog'liq ekspertiza xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2023-yil 11-yanvardagi 01/73-sonli ma'lumotnomasi). Natijada savdo belgilari (brendlar), tovar va mahsulotlarning nomlanishi bilan bog'liq masalalarni ilmiy asoslarda yoritish imkonini ta'minlagan;

huquqbuzarlar, xususan, giyohvandlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy qarashlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Hamma uchun" dasturi ssenariysini yozishda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat muassasasining 2023-yil 16-yanvardagi №06-28-1128-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 5 ta xalqaro hamda 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

Sohaning nomlanishi bilan bog'liq munozarali holatlarga o'z munosabatini bildirgan tilshunos B.Mengliyev sud-huquq tizimida ekspertizalar bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikni "lingvistik ekspertologiya" deb nomlashni taklif qiladi. Tadqiqotchi K.Musulmonova tomonidan ham soha "lingvistik ekspertologiya" termini bilan nomlangan. Ingliz tilidagi tadqiqotlarda esa nomlanish bilan bog'liq tafovut yo'q, ular yagona nomdan – "sud lingvistikasi" (forensic linguistics)dan foydalanib kelishmoqda.

Lingvokriminalistika sohasining turlicha nomlar bilan yuritilishi maqsadga muvofiq emas, u tergov, surishtiruv jarayoni bilan bog'liq bahsli kriminal matnlarni til xususiyatlari asosida tekshiruvchi, baholovchi zamonaviy amaliy tilshunoslik va yurilingvistikaning alohida tarmog'i sifatida barqaror nomiga ham ega bo'lishi lozim. Sohani to'g'ri nomlashda uning kriminalistika va lingvistika fanlarining integratsiyasiga asoslanganligi tamoyildan kelib chiqish zarur. Agar tadqiqot kriminalistik aspektda bo'lsa, uni "kriminalistik lingvistika", lingvistik yo'nalishda bo'lsa, "lingvokriminalistika" deb nomlash maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, tadqiqotimiz asosan lingvistik aspektda bo'lganligi bois "lingvokriminalistika" terminini ishlatish masala mohiyatiga moslik kasb etadi.

Lingvokriminalistikaning asosiy vazifasi bahsli kriminalistik matnlarni bevosita tadqiq qilish, ularga yechim topish, o'z joniga qasd qilish, qotillik kabi jinoyatlar bilan bog'liq matnlarni fonetik, leksik, grammatik hamda usubiy jihatlariga ko'ra tadqiq qilish hisoblanadi.

Lingvokriminalistikaning o'rganish obyektini belgilashda ham turli qarashlar mavjud. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayrim holatlarda olimlar tomonidan lingvokriminalistika, sud lingvistikasi, qonun tili lingvistikasi, lingvokriminalistika tushunchalari o'zaro teng hodisa sifatida qaraladi. Biroq ular yurilingvistikaning maxsus bo'limlari bilan bog'liq har xil tushunchalardir. Buni quyidagi jadvalda yaqqol kuzatish mumkin.

1.1.1-jadval



Shuningdek, lingvistik ekspertiza, lingvokriminalistik ekspertiza, sud lingvistik ekspertizasi kabi tushunchalar ham bir-biridan farq qiladi. Lingvokriminalistik ekspertiza, sud lingvistik ekspertizasi lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Buni jadval shaklida quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Lingvokriminalistik ekspertiza haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday tadqiqotlar bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham kriminalistik bilimlarni taqozo qiladi. Shuning uchun lingvokriminalistik ekspertizani o'tkazuvchi mutaxassis ham tilshunoslik, ham kriminalistikaga oid bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Tadqiqotning "Lingvokriminalistik tadqiq turi va ularning tasnifi" deb nomlangan ikkinchi bo'limi lingvokriminalistik tadqiq o'tkazish lozim bo'lgan bahsli matn turlari va ularning tasnifiga bag'ishlangan. Sud-tergov jarayonida bahsli matni tadqiq qilishni turlarga ajratishda mutaxassislar tomonidan turli yondashuvlar mavjud. Xususan, germaniyalik olim Jurgen Handkie tadqiq jarayonini ovozli matnlar va yuridik matnlar identifikatsiyasi sifatida ajratadi¹. Birinchi turda olim ovozning fonetik xususiyatlari, ovoz tempi va uzunligi kabilarga e'tibor qaratish lozimligiga og'u bersa, ikkinchi turda yuridik matnlar identifikatsiyasida o'z joniga qasd qilishga qaratilgan xatlar, turli kriminal xarakterdagi matnlarni tadqiq qilish nazarda tutilgan. Ingliz olimi John Olsson², rus olimlari I.K.Brinev³, M.A.Grachev⁴, ukrainalik olim L.V.Ajnyuk⁵, o'zbek tilshunolaridan K.Musulmonova⁶ ham o'ziga xos tasniflarni amalga oshiradi. Yuqoridagi olimlarning bildirgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bahsli matnlarning xarakterli xususiyatlari, turli dialektlarning anonimik holatlarda voqelanishi, leksik birliklarning qator semalari, shuningdek, sud-tergov jarayoni bilan bog'liq e'tirozlar va ziddiyatga sabab bo'layotgan matnlarning turi, xarakterli xususiyati va mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

haqorat, tuhmat, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish bo'yicha;

turli bahsli so'z va iboralarda salbiy ma'no va ma'lumotlarning mavjudligi bo'yicha;

¹ Handkie Jurgen. Forensic Linguistics – An Overview. https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-Q_Pds -2014.

² John Olsson. Forensic Linguistics. Continuum International Publishing Group – New York, 2008. – P. 5-10.

³ Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография / – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – 252 с.

⁴ Грачев М.А. Лингвокриминалистика учебник. 1-е изд. – Нижний Новгород: Нижегородский государственный лингвистический университет им. Н.А. Добролюбова, 2009. – С. 8.

⁵ Ажнюк Л.В. Теоретичека об'єкти-методическыи экпертизи і методици їх дослідження // Лоса Викторина Ажнюк // Мовознавство. – 2018. – № 3. – С. 6.

⁶ Musulmonova K.X. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. Filol. fan bo'yicha fals. dokt. (PhD). ... Diss. – Qo'qon, 2022. – B. 11.

turlicha noqonuniy xatti-harakatlarga jalb etish, suhbat mazmunini niqoblash (ataylab noto'g'ri ma'lumot berish) bo'yicha;

ekstremistik, terrorizm, tahdid, shantaj, nafrat va adovatni qo'zg'atuvchi materiallar bo'yicha;

korruptsiya, tovlamachilik holatlari bilan bog'liq matnlar bo'yicha;

turli giyohvandlik moddalari, psixotrop vositalari iste'moli bilan shug'ullanuvchilarning nutqi bilan bog'liq holatlar bo'yicha;

qurol-yarog' noqonuniy savdosi bilan shug'ullanuvchilar nutqi bilan bog'liq;

noverbal nutq vositalari orqali bayon etilgan nutq bilan bog'liq holatlar bo'yicha;

bahsli siyosiy nutqlar bo'yicha;

bahsli nomlanish, tovar belgilar (grafik, noverbal) bilan bog'liq ekspertizalar.

Lingvokriminalistik tadqiqotning ushbu turlari bahsli matnlar (og'zaki va yozma)ni lingvokriminalistik tomondan tadqiq qilishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, lingvokriminalistik tadqiqotning har bir turi muayyan ziddiyatli vaziyatlarga yechim topishga yordam beradi. Sud ekspertizalari negizida xatshunoslik, muallifshunoslik, siyosatshunoslik ekspertizalari alohida ajratib ko'rsatiladi.

Muallifi noma'lum matnlarning mualliflari o'z shaxsini yashirishga va o'z lingvistik savodxonligini o'zgartirishga harakat qilish holatlari lingvokriminalistik tekshiruv jarayonlarida kuzatiladi. Bunday holatda lingvokriminalistik matnning quyidagi umumiy belgilarga e'tibor berishi lozim:

1) yozma nutqda kirish so'z va birikmalar (*aytiblik, har ehtimolga qarshi* va hokazo), so'z birikmalari, undovlardan o'ransiz foydalanish;

2) to'g'ri matnga noaniqlik kiritish mavjudligi;

3) matnda mazmunan mullaqo ortiqcha bo'lgan muallifning holatlari va xususiyatlariga taqlid qilishning mavjudligi.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, mualliflarni, qo'l yozuvini qasddan o'zgartirish faktini, anonim xat muallifining holatini aniqlashda keng qamrovli lingvokriminalistik va qo'l yozuvi ekspertizasi talab qilinadi.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi "Lingvokriminalistik tadqiq bosqichlari" deb nomlanadi. Tergov, surishtiruv jarayonida turli ko'rinishdagi bahsli matnlarni lingvokriminalistik aspektida tadqiq qilish o'ziga xos bosqichlarni talab qiladi. Lingvokriminalistik ekspertizaning sifatlari o'tkazilishida uning tadqiq bosqichlari muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masalaga oid turlicha qarashlar mavjud. Jumiadan, A.N.Baranov bahsli matnlarni tadqiq qilishning quyidagi bosqichlarini sanab o'tadi:

qo'lyozma matnning dinamik harakatini aniqlash bosqichi (harakatning yo'nalganligi, belgilarning individualligi);

fonetik (shu jumladan, fonologik va fonoskopik);

morfologik (aksariyat hollarda bahsli savdo belgilarini tahlil qilishda samarali deb baholanadi);

sintaktik, diskursiv tahlil (kommunikativ vaziyatning og'zaki bo'lmagan

tarixiy qismlari tahlil qilinadi)¹.

Indoneziyalik tadqiqotchilar tomonidan lingvokriminalistik tadqiq o'tkazishda quyidagi bosqichlar ajratib ko'rsatiladi:

ovozni identifikatsiya qilish (masalan, lentadagi tahdid soluvchi ovozning egasi)ni aniqlash;

muallifni identifikatsiyalash (kimligini aniqlash);

matni boshqa bir matnga yoki gumon qilinuvchining yozuvlarini o'zaro qiyoslash;

nutqni tahlil qilish (aniqlashga yordam berish uchun ko'pincha yashirincha yozib olingan yozma yoki og'zaki nutqning tuzilishini tahlil qilish);

tahliilning lingvistik (fonetik-fonologik, punktuatsion, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, uslubiy) jihallariga alohida e'tibor qaratish;

dialektologik (so'z va qo'shimchalarning hududiy xoslanishi) xususiyatlarga diqqat qilish;

so'zlarning asl m'nosiga ko'ra tahlil. Bu etimologik tahlilga ham yaqin turadi; lingvistik xilma-xilliklarni tahlil qilishi bosqichi (matndagi istalgan birlikning turli variantda ifodalanishi)².

Bizning fikrimizcha, keltirilgan tahlil bosqichlarida biroz mavhumlik ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, bir tadqiq bosqichi bilan ikkinchi tadqiq bosqichi bir-birini, albatta, taqozo etadi. Tadqiq bosqichlarining barchasida nutqda qo'llanuvchi so'zlar tahliliga alohida e'tibor beriladi. Lingvokriminalistik tadqiq bosqichlari ketma-ketlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, lingvokriminalistik tadqiq bosqichlarini quyidagi ikki asosiy turga bo'lish lozim:

umumiy tadqiq bosqichlari;

maxsus tadqiq bosqichlari.

Umumiy tadqiq bosqichlari lingvokriminalistik tadqiqning barcha turlari uchun ahamiyatli, takrorlanuvchi jarayon bo'lib xizmat qiladi. Maxsus bosqichlar esa har bir bahsli matnning kriminal xarakterli xususiyatlari va holatini chuqur tahlil qilishga asoslanishi zarur.

Bobning to'rtinchi bo'limi lingvokriminalistik tadqiq qilishning o'ziga xos tamoyillariga bag'ishlangan. Mazkur bo'limda M.V.Ablin³, I.A.Sternin⁴lar taklif qilgan umumiy tamoyillarga munosabat bildirdi. Ularga qo'shimcha tarzda quyidagi tamoyillar taklif qilindi: 1) ekspertiza o'tkazishning qonuniylik tamoyili; 2) tahlil qilinayotgan har bir bahsli matnga obyektiv yondashish tamoyili; 3) bahsli matnning tahlil qilishda metod va usullardan o'rinni foydalanish tamoyili.

Ushbu tamoyillar bahsli matnning tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Xususan, matnning qonun doirasidan chiqib ketmagan holda tadqiq qilish hamda har bir

¹ Барбаков А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие [Текст]. – М.: Флинта Наука, 2011. – С. 31-56.

² Hoopman and Saryan. The History of Forensic Linguistics as an Assisting Tool in the Analysis of Legal Texts//Sriwijaya Law Review 7 Vol. 2 Issue 2, July (2018). – P. 215

³ Аблин М.В. Теоретико-методологические обоснования лингвистической экспертизы по делам об экстремизме. Дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2015. – С. 162.

⁴ Стернин И.И. Принципы лингвокриминалистического анализа текста // Вестник КРСУ. 2016. Том 16.

matnga mos usullarni qo'llash ekspertiza natijalarining sifatli amalga oshishiga yordam beradi. Shuningdek, ekspertiza jarayonida bahsli matnni tadqiq qilish metodologiyasini ishlab chiqish uchun fundamental ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ushbu tadqiq tamoyillari bahsli matnni obyektiv baholashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- 1) takroriy ekspertizalarning oldini oladi;
- 2) ekspert xulosalarining ishonchligini ta'minlaydi,
- 3) sud-tergov tizimidagi bahsli matnlarni tadqiq qilish sifatli baholashning tasdiqlangan mezonini bo'lib xizmat qiladi.

4) masalani hal qilishda bir tomonlama yondashmasdan, balki ijtimoiy, psixologik, huquqiy tomonlardan baho beriladi.

Dissertasiyaning "O'zbek tilining lingvokriminalistik tadqiqida leksik-semantik xususiyatlar" deb nomlangan ikkinchi bobi lingvokriminalistik nutq leksikasi, haqorat mazmunidagi matnlar, ekstremistik mazmundagi matnlar va huquqbuzarlar nutqining lingvokriminalistik tadqiqiga bag'ishlangan.


"Lingvokriminalistik nutq leksikasi" deb nomlangan birinchi bo'limda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish bilan bog'liq matnlarda noadabiy leksik birliklar, giyohvandlikka oid huquqbuzarlar nutqi bilan bog'liq argolar hamda ekstremistik mazmundagi so'z va iboralarning leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan, ularning o'ziga xos xususiyatlari tasnif qilingan. Lingvokriminalistik nutq leksikasi kriminal xarakterdagi leksik birliklar hisoblanib, ma'lum ijtimoiy qatlam doirasidagina faol qo'llaniladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari so'zlashuv uslubining asosi sifatida aniq bir shaxs yoki guruhga qaratilganligi, maxfiylik, norasmiylik, mavhumlik, uslubiy bo'yoqdorlik hamda uslubiy xoslanganligi bilan ajralib turadi.

Bu belgilar umumadabiy tildagi barcha so'zlarning lingvokriminalistik nutqda qo'llanmasligidan dalolat beradi hamda leksik jihatdan so'z tanlash mezonini belgilaydi.

Haqorat, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish tadqiq jarayoni bilan bog'liq matnlarda noadabiy leksik birliklarning vulgar turkumiga kiruvchi haqorat so'zlar faol qo'llaniladi. Bunday so'zlar jismoniy yoki yuridik shaxs qadr-qimmatini, nufuzi, ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu so'zlar so'zlashuv nutqida faol bo'lib, emotsional-ekspressivlik vazifasini bajarib keladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin:

2.1.1-rasm

Ijtimoiy tarmoq xabari



Ushbu rasmdagi hayvon, eshak, tvar, shakal kabi leksik birliklarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Bunda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini hayvonlarga

qiyoslanib taqqoslanmoqda.

Lingvokriminalistik nutq leksikasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan huquqbuzarlar nutqiga doir argolar keng jamoaga emas, balki tor doiradagi kishilarga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Xususan, ular maxfiylikni ta'minlash va "begona"larni chalg'itish, shuningdek, bunday so'zlardan foydalanish o'ziga xos belgi vazifasini bajarib keladi. Shu nuqtayi nazardan, bunday so'zlarni lingvistik tomondan o'rganish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mezkur bobning "Haqorat mazmunidagi matnlarning lingvokriminalistik tadqiqi" deb nomlangan bo'limida haqorat mazmunidagi leksemalarning mohiyati, ularning semantik jihatdan darajalari tahlil qilinadi.

Huquqni muhofaza qilish organlari bilan ishlash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, lingvokriminalist mutaxassislar haqoratni aniqlash, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalarga juda muhtoj. Shu nuqtayi nazardan, ayrim tilshunoslar lug'at tuzishni taklif qilishadi, unda "invektivlik gradatsiyasini aks ettiruvchi leksikografik belgilarning yangi tizimi ishlab chiqilishi kerak".

Shubhasiz, bunday lug'atni tuzish mumkin. Lekin bu leksema shakllarning kontekst va nutqiy vaziyatda bajaradigan vazifasi mavhumligicha qolib ketishi mumkin. Ammo har bir invektiv so'zga misollar keltirish, ma'lum vaziyatda so'z haqorat bo'lishi va boshqa vaziyatda esa boshqa ma'no va vazifani bajarishi mumkin bo'lgan aniq misollarni topish bir muncha murakkab ish hisoblanadi. Masalan, Birinchi holat. *O'qituvchi o'quvchiga: Obbo chalasavod-e, Muxtorjon, bu nima sharmandalik. Qarag'in-chi inahongda g'ij-g'ij xato?*

Ikkinchi holat. *Bu gapni o'zingizga ham aytilishim mumkin, o'rtog' mudir janobi oliylari, SIZ MUTLAQO CHALASAVODSIZ! Binaqa xaromxo'r, poraxo'r rahbar, gazanda cho'chqa yo'qolsin!*

Uchinchi holat. Ona yosh bolasiga: *Voy cho'chqa-ye, hali shunaqa qilliqniyam o'rgandingmi?*

Ko'rinadiki, bir kontekstual vaziyatda haqorat semali birlik boshqa vaziyatda ayni shu semada qo'llanmasligi mumkin. Yuqoridagi misolda *poraxo'r*, *xaromxo'r* singari birliklarni haqorat yoki tuhmat holatlariga ko'ra tekshirish lozim bo'ladi. Shuningdek, bir kontekstual vaziyatda so'zning haqorat yoki haqorat emasligini baholashda faqatgina taqdim etilgan matnning o'ziga yetarli bo'lmaydi. Balki og'zaki tarzda bo'lsa, uning audiosi ham taqdim etilishi ekspertga aniq xulosa chiqarishga yordam beradi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "Ekstremistik mazmundagi matnlarning lingvokriminalistik tadqiqi" deb nomlanadi. Ekstremistik mazmundagi matnlarni o'rganish jarayonida turli xil g'oyalar o'ziga xos va xilma-xil ma'nolar, manipulyatsiyalar, shaxsga yoki shaxslar guruhiga qarshi harakatlarni keltirib chiqaradigan tegishli his-tuyg'ular, qarashlar, e'tiqodlarni uchratishimiz mumkin. Rossiya psixotexnologlar assotsiatsiyasi (RPA) prezidenti Vitaliy Peretyachenko aniq misollar yordamida manipulyatorlar texnikasini quyidagicha tavsiflaydi:

¹ Голубева Е.В. Проблемы лингвокриминалистики в аспекте современности // Международная студенческая научная конференция – 2016 – № 5-3

